



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 206 sahifa,
16-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati	15
<i>Xurramov Anvar Vafqulovich</i>	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati	19
<i>Olim Ziyoyev Toshpulatovich</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	26
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora</i>	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi	30
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari	34
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi	40
<i>Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi</i>	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri	44
<i>Kushakova Nargiza Islambaevna</i>	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes	47
<i>Majitova Munisa Oybek qizi</i>	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	51
<i>Normurodova Qunduz Tursun qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish	54
<i>Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li</i>	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	58
<i>Po'latova Sitora Olimjonovna</i>	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari	62
<i>Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich</i>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
<i>Shomurotova Sh. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari	70
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
<i>Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi</i>	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
<i>Набиев Абдулло Абдувохидович</i>	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari	88
<i>Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna</i>	



Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy fazilatlarini shakllantirish	91
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi</i>	
Ekologik muammoli vaziyatlar orqali kimyo fanida kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi	96
<i>Ibodullayeva M. I., Dinnazarova F. S.</i>	
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'limni tashkil etish metodikasi	101
<i>Saydullayev Zafar Erkinovich</i>	
Talabalarni milliy hunarmandchilik vositasida samogen tarbiyalashda tarixiylik tamoyili	104
<i>Allanov Shuxrat Qilichovich</i>	
"Harry Potter" asarining o'zbekcha tarjimasida stilistik vositalarni qayta yaratish masalalari	108
<i>Fayziyev Baxodir Baxshilloevich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishning integratsiyalashgan texnologiyalaridan foydalanish	112
<i>Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Nurmatova Gulchexra Baxadirovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari	116
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash	119
<i>Eshonqulova Ma'suda Habibovna</i>	
Yosh oilalarda nikoh barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	123
<i>Islomova Ozoda Isomiddin qizi</i>	
Aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish metodologiyasi	127
<i>Abdullayeva Maftuna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhit yaratishning pedagogik ahamiyati	131
<i>Turayeva Gulchexra Urayimovna, Ziyaeva Umida Xolmat qizi</i>	
STEAM asosida kollaborativ ta'lim muhitida metakompetensiyalarni rivojlantirish	135
<i>Axmadova Malika</i>	
Yosh sportchilarni sportga yo'naltirish va sportchilarni tanlash muammolari (futbol sport turi misolida)	139
<i>Xotamov Jaloliddin Xusniddin o'g'li</i>	
Biologiyada amaliy tajribalar o'tkazishning zamonaviy virtual yechimlari	143
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati	146
<i>D. P. Xodiyeva, M. Sh. To'rayeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish metodikasi (texnologiya darslari misolida)	150
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Jurayeva Ozoda Ortiq qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'rgatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish	154
<i>G'. Yu. Eshmirzayev</i>	
O'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kimyo ta'limining o'rni va o'ziga xos jihatlari	157
<i>Kamolova Nargiza Ibragimovna</i>	
Bilingvizm (ikki tillilik) sharoitida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	161
<i>Mapruza Embergenova</i>	
Zamonaviy jamiyatda gender sotsializatsiyasi va psixologik jins xususiyatlari: maskulinlik, femininlik va androginlikning empirik tahlili	167
<i>Nasrullayeva Asolat Abdumalik qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda chiziqli tenglamalar sistemalari va ularning amaliy tatbiqlarini o'qitish haqida	171
<i>Qushmurotov Umurbek Ibadillayevich</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalari	177
<i>Raximova Nigora Atakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash orqali nutqiy qobiliyatini rivojlantirish ..	180
<i>Xo'jayeva Durdonaxon Maqsud qizi, Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna</i>	
Pul qadriyatining o'smirlik davrida shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy, ijtimoiy va psixologik omillar: iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixodinamik yondashuvda tahlili	184
<i>Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna</i>	

O'smirlarda koping xulq-atvor shakllanishida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari	189
Yarmatova Sanobar Jo'rayevna	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlar	193
Norquvatova Diyora Davron qizi	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	197
Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	
Системно-функциональное моделирование и эмпирический анализ нравственно-волевой детерминации в профессиональной деятельности военнослужащих	201
Зохилов Нодирбек Улугбекович	

PUL QADRIYATINING O'SMIRLIK DAVRIDA SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI MILLIY, IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK OMILLAR: IQTISODIY IJTIMOIYLASHUVNING PSIXODINAMIK YONDASHUVDA TAHLILI

Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti,
"Amaliy psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'smirlik davrida pulga bo'lgan munosabat va uning qadriyat shakllanishida milliy, ijtimoiy hamda psixologik omillarning rolini o'rganadi. Tadqiqot iqtisodiy ijtimoiylashuv konsepsiyasini psixodinamik yondashuv doirasida tahlil qilib, oilaviy muhit, madaniy qadriyatlar, tengdoshlar bosimi va shaxsiy psixologik xususiyatlarning yoshlarning pulga nisbatan qarashlariga ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, maqolada o'smirlarning pulni tejash, sarflash va qadrlash kabi xulq-harakatlari ularning ijtimoiy hamda emotsional rivojlanishi bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'smirlik davri, pul qadriyati, iqtisodiy ijtimoiylashuv, psixodinamik yondashuv, milliy qadriyatlar, ijtimoiy omillar, psixologik omillar, moliyaviy ong, oilaviy muhit, tengdoshlar bosimi.

Abstract: This article examines adolescents' attitudes toward money and the formation of monetary values, focusing on the influence of national, social, and psychological factors. The study analyzes the concept of economic socialization within a psychodynamic approach, highlighting the impact of family environment, cultural values, peer pressure, and individual psychological characteristics on adolescents' perceptions of money. Furthermore, the article explores how behaviors such as saving, spending, and valuing money are intrinsically linked to adolescents' social and emotional development. The findings indicate that the social environment and internal psychodynamic processes play a crucial role in shaping financial consciousness. Additionally, economic socialization and the broader cultural context emerge as key determinants of adolescents' decision-making abilities and emotional attitudes toward money.

Key words: Adolescence, monetary values, economic socialization, psychodynamic approach, national values, social factors, psychological factors, financial literacy, family environment, peer influence.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности формирования отношения подростков к деньгам и денежным ценностям под влиянием национальных, социальных и психологических факторов. Исследование основано на концепции экономической социализации в рамках психодинамического подхода и направлено на анализ влияния семейной среды, культурных ценностей, давления сверстников и индивидуально-психологических особенностей на восприятие денег подростками. Кроме того, в работе анализируется взаимосвязь между такими формами поведения, как экономия, расходование и оценка денег, и процессами социального и эмоционального развития личности подростка. Результаты исследования показывают, что социальная среда и внутренние психодинамические процессы играют ключевую роль в формировании финансового сознания молодежи. Также выявлено, что экономическая социализация и культурный контекст определяют способность подростков принимать финансовые решения и формируют их эмоциональное отношение к деньгам.

Ключевые слова: Подростковый возраст, денежные ценности, экономическая социализация, психодинамический подход, национальные ценности, социальные факторы, психологические факторы, финансовое сознание, семейная среда, влияние сверстников.



KIRISH

O'smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, ayni paytda eng shakllanish bosqichlaridan biridir. Aynan shu davrda shaxsning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy me'yorlarga munosabati va o'ziga xos "men" konsepsiyasi mustahkamlanadi. So'nggi yillarda jamiyatda ro'y berayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, raqamli iqtisodiyotning kengayishi va ommaviy madaniyatning kuchayishi o'smirlarning pulga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirmoqda. Pul endilikda nafaqat moddiy vosita, balki shaxsiy muvaffaqiyat, mustaqillik va ijtimoiy maqomning ramziga aylanib bormoqda. Shu sababli, o'smirlarning pul qadriyatini shakllantiruvchi omillarni chuqur tahlil qilish zamonaviy psixologik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra, har bir shaxs moliyaviy ong va pulga nisbatan munosabatni bosqichma-bosqich o'rganadi.

Dastlab bu jarayon oilada, so'ngra maktabda, keng ijtimoiy muhitda davom etadi. O'smirlik yoshi esa bu ijtimoiylashuvning eng faol davridir, chunki bu paytda shaxsda mustaqil fikrlash, baholash va qaror qabul qilish qobiliyatlari shakllanadi. Shu bilan birga, o'smirlar hissiy jihatdan beqaror, tajriba orttirish bosqichida bo'lganliklari sababli, ularning pulga munosabati ko'p hollarda irratsional omillar bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixodinamik yondashuv nuqtai nazaridan, pul qadriyati faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy tushuncha emas, balki shaxsning ichki psixologik jarayonlari – motivlar, ehtiyojlar, xavotirlar va orzular bilan ham bevosita bog'liq.

Z. Freyd, E. Erikson, A. Adler kabi klassik psixoanalitiklar shaxsning moddiylikka munosabati uning bolalikdagi tajribalari, ota-ona bilan bo'lgan hissiy aloqalari hamda ijtimoiy nazorat mexanizmlari orqali shakllanishini ta'kidlagan. Ayniqsa, o'smirlikda "o'zini tasdiqlash", "mavqe orttirish" yoki "boshqalarga o'xshash bo'lish" kabi ongsiz istaklar pul bilan bog'liq xulq-atvorga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Milliy va madaniy omillar ham bu jarayonda alohida o'rin tutadi.

O'zbek jamiyatida mehnatsevarlik, tejamkorlik, halollik va oilaviy birdamlik qadriyatlari tarixan chuqur ildiz otgan. Shu bois pul masalasiga faqat foyda yoki boylik nuqtai nazaridan emas, balki axloqiy va ma'naviy mezonlar asosida yondashish holati mavjud. Ammo globallashuv, reklama, ijtimoiy tarmoqlar va iste'molchilik madaniyatining kuchayishi o'smir ongida yangi, ba'zan esa ziddiyatli iqtisodiy qadriyatlar tizimini shakllantirmoqda. Natijada milliy qadriyatlar bilan zamonaviy iqtisodiy me'yorlar o'rtasida ichki kognitiv dissonans paydo bo'ladi.

Ijtimoiy omillar orasida eng muhimlaridan biri – tengdoshlar ta'siridir. O'smirlar uchun jamoada maqom, tan olinishi va "zamonaviylik" belgisi ko'pincha moliyaviy atributlar orqali ifodalanadi: brend kiyimlar, texnologik gadjetlar yoki ijtimoiy tarmoqdagi imij. Bu holat ularda raqobat, taqlid yoki hasad kabi hissiy reaksiyalarni kuchaytiradi, natijada pul nafaqat vosita, balki ijtimoiy baholash mezoniga aylanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oila o'smirning moliyaviy ijtimoiylashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ota-onalarning iqtisodiy xulqi, ularning mehnatga, tejjash va sarflashga bo'lgan qarashlari, bolaga pul bilan bog'liq mas'uliyatni o'rgatish uslublari – bularning barchasi o'smirning shaxsiy iqtisodiy qadriyatlarini shakllantiradi. Masalan, farovon oilalarda pulni ortiqcha qadrlash, kambag'al oilalarda esa uni faqat hayotiy zarurat sifatida ko'rish holati kuzatiladi. Bu ikki ekstremal yondashuv o'smirning psixologik muvozanatini izdan chiqarib, ularning ijtimoiy moslashuvini murakablashtirishi mumkin.

Psixologik omillar ichida o'zini anglash darajasi, emotsional yetuklik va ichki nazorat tizimi muhim ahamiyatga ega. O'zini qadrlash darajasi past bo'lgan o'smirlar pul orqali o'zini tasdiqlashga urinadi, bu esa iste'molchilik xatti-harakatlarini kuchaytiradi. Aksincha, o'z his-tuyg'ularini nazorat qila oladigan, mas'uliyat hissi rivojlangan shaxslar moliyaviy masalalarda ehtiyotkor va ongli qarorlar qabul qiladi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy tarbiya va psixologik rivojlanish o'rtasida o'zaro mustahkam bog'liqlik mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'smirlik davrida pul qadriyatining shakllanishi inson rivojlanishining eng murakkab bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxs o'z "Men"ini izlaydi, mustaqillikka intiladi va ijtimoiy o'rni haqida faol fikrlay boshlaydi. Shu jarayonda pul – nafaqat iqtisodiy resurs, balki o'zini tasdiqlash, ijtimoiy maqomini belgilash hamda atrofda tilarning e'tirofiga erishish vositasiga aylanadi.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, o'smirlar orasida pulni faqat "sotib olish" yoki "sarflash" bilan bog'lashdan tashqari, uni o'zini ifoda etish, tengdoshlari orasida mavqe orttirish, mustaqillikni his etish vositasi sifatida ham qabul qilinadi ^[1].

Psixodinamik yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, pul qadriyatining shakllanishi ichki psixik ehtiyojlar – xavfsizlik, nazorat, qadr topish va erkinlik kabi chuqur hissiy omillar bilan bevosita aloqador. O'smirlikning o'ziga xos "emotsional labil" holati tufayli shaxs ko'pincha pul orqali bu ehtiyojlarini qondirishga urinadi. Pul bu jarayonda "simvolik ob'ekt" sifatida ishlaydi – ya'ni u orqali o'smir o'zini kuchliroq, mustaqilroq yoki boshqalarga teng deb his qiladi. Milliy va madaniy kontekstda esa bu jarayon yanada murakkab tus oladi. O'zbek jamiyatida pul qadri ko'p hollarda mehnatsevarlik, halollik va oilaparvarlik kabi qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. O'smir bu qadriyatlarni oiladan, ota-onasining iqtisodiy xulq-atvori va ularning moliyaviy qarorlari orqali o'zlashtiradi. Shu bois oilaviy tajriba – iqtisodiy ijtimoiylashuvning birlamchi o'chog'i sifatida xizmat qiladi. Ota-onaning "mehnat qilmasdan topilgan pulning qadri yo'q" kabi qadriyatli fikrlari o'smir ongida chuqur iz qoldiradi va uning kelajakdagi moliyaviy munosabatlariga asos bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy omillar – reklama, ijtimoiy tarmoqlar va tengdoshlar ta'siri ham pul haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Zamonaviy axborot oqimida o'smirlar moddiy farovonlikni muvaffaqiyat belgisi sifatida ko'radilar. Bu holat ayrim hollarda ichki konfliktni keltirib chiqaradi: bir tomondan, milliy qadriyatlarda kamtarlik va mehnatsevarlik targ'ib etilsa, ikkinchi tomondan, global ommaviy madaniyat boylikni ijtimoiy maqom mezoniga aylantiradi. Shu ziddiyatli fon o'smir psixikasida "pul – qadriyat – o'zlik" o'rtasida psixologik dissonansni paydo qiladi. Psixodinamik tahlil nuqtai nazaridan bu dissonans o'smirning ichki "ideal Men"i va real "Men"i o'rtasidagi ziddiyat bilan izohlanadi. Pul, shu ma'noda, bu ikki qutbni muvozanatlashtiruvchi ramzga aylanadi. Masalan, o'smir o'zini jamiyatda qabul qildirish uchun "brend kiyimlar" yoki "moda buyumlari" orqali ifodalaydi, bu esa uning ichki xavfsizlik ehtiyojini qondiradi, lekin ayni paytda iqtisodiy javobgarlikni zaiflashtiradi. Shu bois iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixodinamik tahlili shuni ko'rsatadiki, pul qadriyatining shakllanishi shunchaki iqtisodiy jarayon emas – bu shaxsning o'zligini anglash, mustaqillikka intilish va ijtimoiy tan olinishi uchun olib boradigan ichki psixologik kurashdir. Agar bu jarayon to'g'ri yo'naltirilmasa, o'smirning moliyaviy qarashlari ekstremal shakllarga – ortiqcha iste'molchilik, moddiy ustunlikni idealizatsiya qilish yoki pulni "yovuzlik manbai" sifatida rad etishga o'tishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davrida pul qadriyatining shakllanishi – ijtimoiy, madaniy va psixodinamik omillar o'zaro to'qnashgan murakkab tizimdir. Ushbu jarayonni to'g'ri yo'naltirish uchun oila, ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalarining birgalikdagi ta'siri muhimdir. O'smirga pulni nafaqat iste'mol vositasi, balki mas'uliyat va mehnat qadriyatlari bilan bog'liq ijtimoiy resurs sifatida ko'rsatish – iqtisodiy ongni shakllantirishdagi eng muhim psixologik vazifa hisoblanadi.

Psixodinamik yondashuv pulga bo'lgan munosabatni insonning ichki, ko'pincha ongsiz ehtiyojlari bilan bog'laydi. Bu nazariya vakillari, xususan, Z. Freyd pulni ramziy energiya deb qaraydi – u inson ongida nazorat, xavfsizlik va o'zini qadrlash tuyg'ulari bilan chambarchas bog'liqdir. Freydning fikricha, inson pulga egalik qilish orqali o'z hayoti ustidan nazoratni saqlashga urinadi, bu esa bolalik davrida shakllangan ongsiz himoya mexanizmlarining kattaligidagi ko'rinishidir [2].

Bolalikda ota-ona tomonidan berilgan moddiy mukofot yoki jazolar, iqtisodiy cheklovlar, "yo'q" va "bo'lmaydi" so'zlari keyinchalik shaxsning moliyaga bo'lgan hissiy munosabatini shakllantiradi. Shu sababli o'smirlikdagi pul qadriyati ko'pincha erta yoshdagi tajribalar, iqtisodiy xavfsizlik hissi yoki uning yo'qligi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida o'smirlik "identitet inqirozi" bosqichi sifatida ta'riflanadi. Bu davrda inson "Men kimman?" degan savol bilan kurashadi va o'zining shaxsiy qadriyat tizimini shakllantiradi. Shu jarayonda pul – identitetni ifodalovchi vositaga aylanadi: kimdir uni erkinlik va mustaqillik belgisi sifatida ko'rsa, boshqasi ijtimoiy maqom yoki muvaffaqiyat ramzi sifatida qabul qiladi [3].

Boshqacha aytganda, o'smirning pulga bo'lgan munosabati – bu uning o'zini anglash, ijtimoiy roli va ma'naviy qadriyatlari o'rtasida muvozanat izlash shaklidir. Ayrim o'smirlar pul orqali o'z imkoniyatlarini kengaytirish, ota-onasiga qaramlikdan chiqish, "men ham qila olaman" degan ishonchni mustahkamlashga urinadi. Bu holatda pul – o'zini tasdiqlashning psixologik instrumenti sifatida ishlaydi. Aksincha, boshqa o'smirlar uchun pul haddan tashqari emotsional yuklamaga ega bo'lib, uni yo'qotish yoki topa olmaslik o'zini qadsiz his qilish, o'zini past baholash kabi nevroitik holatlarni kuchaytirishi mumkin. Shu tarzda psixodinamik yondashuv shaxsning moliyaviy xulqini faqat tashqi omillar emas, balki ichki konfliktlar, himoya mexanizmlari va bolalikdagi hissiy tajribalar orqali tushuntiradi. Iqtisodiy ijtimoiylashuvning dastlabki manbai esa – oila. Bola pul haqida dastlabki tushunchalarni ota-onasi orqali o'rganadi. Ular unga faqat iqtisodiy bilim emas, balki mehnat, mas'uliyat, tejash, halollik kabi qadriyatlarni ham uzatadi. Furnham (1999) o'z tadqiqotida shuni ta'kidlaydiki, bolalar moliyaviy xulqning asosiy ko'nikmalarini aynan oilaviy kuzatish orqali o'zlashtiradilar [4]. Bu jarayon psixologik jihatdan "model o'rganish" mexanizmi orqali kechadi: bola ota-onasining pul bilan bog'liq har bir harakatini (sarflash, tejash, sovg'a qilish, hadya qabul qilish) kuzatib, ularni o'zining ichki normativ tizimiga singdiradi. O'zbek oilalarida esa bu jarayon milliy-madaniy qadriyatlar bilan boyitilgan.

Pul faqat iqtisodiy vosita emas, balki axloqiy me'yor bilan bog'liq tushunchadir. "Halol mehnat – halol rizq", "Ish yo'q joyda rizq yo'q" kabi maqollar orqali bola pulni halollik, mehnatsevarlik va baraka bilan bog'lashni o'rganadi. Shu sababli o'zbek kontekstida pul qadriyatining shakllanishi nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy va ijti-



moiy o'lchamga ham ega. Ota-onaning iqtisodiy madaniyati – o'smirning pulga nisbatan pozitsiyasini belgilovchi hal qiluvchi omil. Agar oilada moliyaga sog'lom, mas'uliyatli va mehnatga asoslangan munosabat shakllangan bo'lsa, o'smirda ham shunga mos moliyaviy intizom va emotsional muvozanat yuzaga keladi. Ammo aksincha, ota-ona tomonidan beqaror moliyaviy qarorlar, haddan ortiq isrofgarchilik yoki tejamkorlikning ekstremal shakllari kuzatilsa, o'smirda bu tajribalar ichki ziddiyatli qadriyat tizimini hosil qiladi. Bu holatda u yoki pulni idealizatsiya qiladi, yoki butunlay rad etadi – ikkala holatda ham psixologik barqarorlik buziladi. Demak, psixodinamik va ijtimoiy omillar o'zaro qo'shilgan holda o'smirning pulga nisbatan ichki pozitsiyasini belgilaydi. Bu esa uning kelajakdagi moliyaviy xatti-harakatlarini, iqtisodiy qarorlarini va hayotiy qadriyatlar tizimini shakllantirishda muhim determinant sifatida xizmat qiladi. Tengdoshlar guruhi ham o'smirning iqtisodiy qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, inson xulqi modellashtirish va kuzatish orqali shakllanadi [6]. O'smirlar do'stlari orqali sarf-xarajat, brendga intilish, "statusli" narsalarga egalik qilish kabi xulq modellarini qabul qiladi. Agar bu jarayon ijobiy qadriyatlar bilan muvozanatlashmasa, materialistik tendensiyalar va tashqi motivatsiyaga asoslangan hayot yo'li shakllanadi. Raqamli muhitning kengayishi esa bu jarayonlarni yanada murakkablashtirdi.

Zamonaviy o'smirlar uchun ijtimoiy tarmoqlardagi "virtual muvaffaqiyat" ko'pincha real hayotdagi mehnat qadriyatini siqib chiqarmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, onlayn maydondagi iste'molchilik kontenti yoshlarning pulni "tezkor muvaffaqiyat" bilan bog'lashiga olib keladi [6]. Bu esa iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixologik jihatdan yuzaki shaklda kechishiga sabab bo'ladi.

Psixodinamik tahlil nuqtai nazaridan, o'smirlar orasida "pulga nisbatan xavotir" (money anxiety) yoki "pul orqali o'zini qadrlash" (money-based self-worth) sindromlari shakllanishi kuzatiladi [7]. Bunday holatda pul nafaqat vosita, balki shaxsiy o'zini anglash mezoniga aylanadi. Bu psixologik holat o'zini baholash darajasi, o'ziga ishonch va ijtimoiy taqqoslash bilan chambarchas bog'liq. Agar o'smir o'zini boshqalar bilan doimiy solishtirsa, u moliyaviy jihatdan "kamlik hissi"ni boshdan kechiradi va bu xatti-harakatlarida kompensator mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Milliy mentalitet ham o'smirlarning pul haqidagi ijtimoiy tasavvurlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbek jamiyatida iqtisodiy barqarorlik, oila farovonligi va ijtimoiy obro' bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun pul qadriyati ko'pincha "mehnat va halollik" bilan o'lchanadi. Bu qadriyatlarining barqaror saqlanishi yoshlarning psixologik muvozanatini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, so'nggi yillarda individualizm va "muvaffaqiyatni ko'rsatish" madaniyatining kuchayishi o'smirlar ongida yangi ma'nolar tizimini shakllantirmoqda. Bu esa o'z navbatida psixologik ziddiyatlarga sabab bo'ladi – bir tomondan, oila va jamiyat "tejamkorlik"ni targ'ib etsa, ikkinchi tomondan, media "sarflash orqali nufuz orttirish"ni qadrlaydi [8]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning pul qadriyatini shakllantirishda uchta omil – oilaviy iqtisodiy madaniyat, ijtimoiy ta'sir va individual psixodinamik ehtiyojlar o'zaro murakkab aloqada bo'ladi. Bunda har bir komponentning ta'siri shaxsning temperamenti, ijtimoiy tajribasi va madaniy identifikatsiya darajasiga qarab farqlanadi. Ota-onaning o'rnak ko'rsatishi, ijtimoiy tarmoqdagi modellar va o'smirning ichki motivatsiyasi uyg'unlashganda, iqtisodiy ongning sog'lom shakli paydo bo'ladi. Aksincha, bu tizimdagi muvozanat buzilganda – ya'ni axborotning haddan tashqari ko'pligi yoki ma'naviy nazoratning sustligi – pul qadriyati deformatsiyaga uchraydi va o'smirda pragmatik, hatto deviant iqtisodiy qarashlar rivojlanadi. Shu jihatdan, o'smirlik davrida pul qadriyatini o'rganish nafaqat iqtisodiy psixologiya, balki ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyatga ega. Maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy ijtimoiylashuvni faqat bilim berish yoki moliyaviy savodxonlik sifatida emas, balki shaxsning ichki psixodinamik va madaniy kontekstini hisobga olgan kompleks jarayon sifatida ko'rish zarur.

XULOSA

O'smirlik davrida pul qadriyatining shakllanishi ko'p qatlamli, dinamik va ijtimoiy-psixologik jihatdan sezgir jarayon hisoblanadi. Bu jarayonning markazida shaxsning o'zini anglash, mustaqillikka intilish va ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasi yotadi. Psixodinamik yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, o'smirning moliyaga bo'lgan munosabati uning ongsiz ehtiyojlari, bolalikda olingan hissiy tajribalar va identitet izlanishlari bilan uzviy bog'langan. Pul bu jarayonda nafaqat iqtisodiy vosita, balki xavfsizlik, nazorat, erkinlik va ijtimoiy tan olinishi ramziga aylanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'smirning moliyaviy qarashlari, qadriyatlari va xulq-atvori asosan oilaviy model orqali shakllanadi. Ota-onaning iqtisodiy xatti-harakatlari, ularning pulga bo'lgan hissiy munosabati, tejjash yoki sarflashdagi odatlari bevosita bolaga o'tadi. Bu jarayon shunchaki "o'rgatish" emas, balki ichki psixologik modelni o'zlashtirish shaklida kechadi. Shu sababli, oilaviy iqtisodiy madaniyat – o'smir shaxsida mas'uliyat, mehnatsevarlik, sabr va halollik kabi qadriyatlarining shakllanishida asosiy psixologik maktab vazifasini bajaradi. Madaniy kontekst ham o'ta muhim omil. O'zbek jamiyatida pul qadri mehnat, baraka va halollik bilan bog'langan. Bu qadriyatlar tarixiy, diniy va axloqiy ildizlarga ega bo'lib, o'smirlikdagi iqtisodiy ijtimoiylashuv jarayonini ma'naviy asos bilan to'ldiradi.

Shu bois, o'zbek oilasida bola pulni "mehnat natijasi", "mas'uliyat ramzi" sifatida idrok etadi. Ammo global madaniyatning kirib kelishi, ijtimoiy tarmoqlardagi iste'molchilik me'yorlari va reklama bosimi o'smir ongida yangi, ba'zan qarama-qarshi qadriyat tizimini shakllantiradi. Bu esa ichki psixologik dissonansni kuchaytiradi va "moddiy muvaffaqiyat – ma'naviy qadriyat" o'rtasidagi muvozanatni yo'qotishga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, o'smirlarning iqtisodiy ijtimoiylashuvini psixodinamik asosda to'g'ri yo'naltirish bugungi kunda dolzarb ehtiyojdir. Psixologik profilaktika, oilaviy maslahatlar va ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni psixologik komponent bilan uyg'unlashtirish bu borada muhim rol o'ynaydi. Chunki iqtisodiy bilimning o'zi yetarli emas – o'smirning pul bilan emotsional munosabatini, ichki motivatsiyasini va qadriyat yo'nalishini sog'lom shaklda rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, pul qadriyatining o'smirlik davrida shakllanishi inson shaxsiyati rivojlanishidagi asosiy psixologik indikatorlardan biridir. Bu jarayonning muvaffaqiyati shaxsning ichki dunyosi bilan tashqi ijtimoiy tizim o'rtasidagi uyg'unlikka bog'liq. Shuning uchun o'smirlarning iqtisodiy qarashlarini rivojlantirishda oilaviy tarbiya, milliy qadriyatlar va zamonaviy iqtisodiy muhit o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlash psixologik barqarorlik va mas'uliyatli iqtisodiy ong shakllanishining eng muhim garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Webley, P., & Lea, S. E. G. (1993). *The Economic Psychology of Everyday Life*. Psychology Press.
2. Freud, S. (1924). *The Economic Problem of Masochism*. *International Journal of Psychoanalysis*.
3. Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and Crisis*. W. W. Norton & Company.
4. Furnham, A. (1999). *The saving and spending habits of young people*. *Journal of Economic Psychology*.
5. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Prentice Hall.
6. Nesi, J., & Prinstein, M. J. (2015). *Using Social Media for Social Comparison and Feedback-Seeking*. *Journal of Abnormal Child Psychology*.
7. Tang, T. L. P., & Chen, Y. J. (2008). *Intelligence vs. wisdom: The love of money, Machiavellianism, and unethical behavior across college major*. *Journal of Business Ethics*.
8. Kasser, T. (2002). *The High Price of Materialism*. MIT Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.